

o‘quvchilarining keyingi ta’limga tayyorligini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarni shakllantirishga, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar bo‘yicha bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, rivojlanish funksiyasi atrofdagi dunyonи o‘rganish jarayonida ta’lim faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib talaba-o‘quvchilarining raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda ishlashi natijasida o‘rganishning rivojlantiruvchi ta’siri kuchayadi: idrok, tasavvur, e’tibor, xotira va ayniqsa fikrlashning sifat xususiyatlarini shakllantirishga asos bo‘ladi.

Umuman olganda, biologiya ta’limida multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchiga, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, unga malakali shaxs bo‘lib yetishish imkonini beradi.

Shunday qilib, ta’limni axborotlashtirish o‘quv elektron nashrlari va resurslarini yaratish va ulardan foydalanishning ilmiy asoslarini o‘z ichiga oladi. Bu sohada hali hal etilmagan muammolar ko‘p. Bunday vositalarning ta’lim jarayonining voqeliklariga mos kelishi, axborot vositalari mazmunining ilmiy xarakter, semantik va stilistik madaniyat darajasini oshirish, individual o‘quv nashrlari va resurslari o‘rtasidagi interfeys, texnologik va axborot aloqasiga bo‘lgan ehtiyoj uzlucksiz ta’lim faoliyatining barcha pog‘onalari sohalarida ishtirokini yanada ribojlantirishni toqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дурова, А.И. Современные технологии в учебном процессе./ А.И. Дурова, А.А. Вахрушев. // Начальная школа. - 2005. - «12. - С. 49 - 51.
2. Лебедева А.В. Информационные технологии на уроках окружающего мира // Начальная школа. - 2010 - №3., С. 100
3. “Ta’limda multimedia texnologiyalari” fanidan amaliy mashg’ulotlar o’tqazish bo‘yicha uslubiy qo’llanma 1-qisim, “ALOQACHI” nashriyot-matbaa markazi.Toshkent - 2015 yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM JARAYONINI AXBORTOLASHTRISH

**To‘rayeva Charosxon Shavkat qizi
O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafderasi o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim jarayonini axborotlashtirish, tarbiyachilarning kasbiy standartidan kelib chiqqan holatda informatsion kompetentligini rivojlantirish va ta’lim tizimiga bevosita axborot texnologiyalarini joriy qilish to‘g’risida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Aqlli jamiyat, STEAM texnologiyasi, axborot kompetensiyasi, animations tasvirlar, DVD, CD, flesh-xotira, multimedia, interfaol doskalar.

ИНФОРМИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье описывается информатизация образовательного процесса в системе дошкольного образования, развитие информационной компетентности воспитателей на основе профессиональных стандартов, внедрение информационных технологий непосредственно в систему образования.

Ключевые слова: Умное общество, технология STEAM, информационная компетентность, анимированные изображения, DVD, CD, флэш-память, мультимедиа, интерактивные доски.

INFORMING THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Annotation: This article describes the informatization of the educational process in the preschool education system, the development of informational competence of educators based on professional standards, and the introduction of information technologies directly into the education system.

Key words: smart society, STEAM technology, information competence, animated images, DVD, CD, flash memory, multimedia, interactive boards.

Umumjahon tendensiyalari va tashqi siyosatda ro'y berayotgan hodisalardan kelib chiqib, O'zbekiston oldida global raqobatbardoshlik va milliy xavfsizlik masalasi turibdi va ushbu masalani hal qilishda mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Hozirgi kunda, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o'tkazilmoqda.

Pedagogning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish muammosi bugungi kunda "aqli jamiyat" deb nomlangan yangi axborot jamiyatida pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga qodir bo'lgan zamonaviy sharoitda tarbiyachini tayyorlash bo'yicha vazifalarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq. [1]

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lif, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "RAQAMILO O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 son Farmoniga binoan Maktabgacha ta'lif tashkilotlarini yuqori tezlikdagi ma'lumotlarni uzatish tarmog'iga ulash va undan foydalanishni tashkil etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlariga ko'ra mamlakatimizdagi barcha maktabgacha ta'lif tashkilotlarida Internet tarmog'idan foydalanishni

yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Jamiyat taraqqiyotida o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy barkamolligi, ta’lim-tarbiya sohasi vakillarining mas’ulligi ham muhim o‘rin tutadi. Bu jihatning maqsadga muvofiqligi shu jamiyatning har tomonlama ravnaqini belgilovchi o‘zak nuqta sanaladi. Ushbu ijtimoiy-tabiiy qonuniyat insoniyat tarixining hamma davrlarida ham dolzarb o‘rinni egallab kelgan. Ayniqsa, hozirgi globallashgan axborot texnika asrida yanada muhim bosqichga ko‘tarilgan. Buni mamlakatimizda kechayotgan jadal sur’atdagi islohotlarning tub negizi ta’lim-tarbiya tizimini, metodik ta’minotini takomillashtirish, yosh avlodning ma’nana hamda jismonan sog‘lom rivojlanishini ta’minlash, yuksak intellektga, boy bilim va tajribaga ega mas’uliyatli, fidoyi va talabchan pedagogarlarni munosib rag‘batlantirish, ularning safini kengaytirish, tajribasidan munosib foydalanish kabi bir qator yo‘nalishlarga borib taqalashi ham yaqqol ifodalab turadi. Bu borada maktabgacha ta’lim sohasi ustuvor mavqeni egallaydi. Zero, inson umri davomida oladigan axborotlarning asosiy qismi maktabgacha ta’lim davriga to‘g‘ri kelishi boisidan, bu davrda bolaning kelajagi, shaxs sifatidagi takomilida tamal vazifasini o‘tovchi muhim va munosib ma’lumotlarni taqdim qilib borish ijtimoiy-pedagogik zaruratdir.

Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan, taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo‘naltirilgan maxsus davlat ta’lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiyaviy o‘zgarishlar tarbiyachiga maktabgacha yoshdagি bolalarga ta’lim berishning shakl va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratdi. Bugungi zamonaviy ta’lim sohasidagi asosiy natija u bola tomonidan qay darajada o‘zlashtirib olingani, bu uning rivojlanishiga, shaxsda integrativ xislatlarning shakllanishiga qanchalik xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘quv jarayoni STEAM texnologiyasi asosida, 5 ta rivojlantiruvchi markaz faoliyati orqali tashkil etilishi nafaqat bolalar faolligi, balki tarbiyachilardan katta mas’uliyat va ijodkorlikni talab etmoqda. Bu kabi innovatsiyalarning tub mohiyatida maktabgacha ta’lim sohasini rivojlanish, bolani maktabga sifatli tayyorlash va ularda bolalikdan bilim, izlanish, kashf etish kabi xususiyat va qobiliyatlarni shakllantirish sanaladi. [3]

Bundan ko‘rinib turibdiki, bugungi kun tarbiyachisi zamon talablari o‘laroq kasbiy kompetentligidan kelib chiqqan holatda avvalo o‘zining informatsion kompetetnligini ya’ni raqamli texnologiyalar, axorotlar olami bilan ishlash ko‘nikmasini yetarli darajada shakllantirgan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida AKTdan foydalanish dastlab, ya’ni bugungi kunda quyidagi vositalar yordamida amalga oshirilmoqda:

Matn, video, audio;

Animatsion tasvirlar; DVD, CD, flesh-xotira;

Multimedia ; Interfaol doskalar; Kompyuter, nootebook; Televizor, proyektor.

Yuqorida ko'rsatilgan vositalardan proyektorda bolalar biladigan ertak yoki tanish multfilmning ovozsiz variantini namoyish etib, "Ovoz berish" ta'limiy o'yinini o'ynaganda bolalarning nutqi bilan birga ularning emotsiyal holatlari, rollarni ijro etish mahoratlari namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida an'anaviy ta'lim shakllari bilan kompyuterlashtirilgan pedagogik texnologiyalarni taqqoslaydigan bo'lsak, kompyuterlashtirilgan texnologiyalarda samarali natijalar namoyon bo'ladi: kompyuter ekranida axborotning o'yin shaklida aks etishi bolalarda shu faoliyat turiga nisbatan diqqat va qiziqishini uyg'otadi; harakat, tovush, multiplikatsiya tasvirlari bola xotirasida uzoq vaqt taassurot qoldiradi. Muammoli masalalarni qo'yilishi va ularninig to'g'ri yechimini kompyuter bilan birgalikda topilishi bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kompyuter O'zbekiston Respublikasi maktabgacha talim konsepsiyasida ko'rsatilganidek, bolaga alohida yondashuv imkonini yaratadi, bu jarayonda har bir bolada o'z intellektual darajasida va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib topshiriqni bajarishiga imkon bo'ladi. Kompyuter bola bilan munosabatlarda juda "chidamli", "bag'rikeng", hech qachon bolani xatosi uchun koyimaydi, urishib bermaydi, balki o'z kamchilagini o'zi tuzatishi uchun vaqt beradi va muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratib beradi. Lekin doimo yosh bola bilan munosabatlarda unga beriladigan mehr va insoniy tuyg'ularni hech bir eng zamonaviy kompyuter va smartfonlar ham bajara olmasligini yodda tutish kerak. U faqat ta'limning samaradorligini va zamonaviyligini ta'minlaydi. Bolaga pedagoglar ham, ota-onalar ham zamonaviy raqamlı texnologiyalar faqat taraqqiy etayotgan hayotning bir qismi ekanligini anglatishlari zarur, shuningdek, kitob bilan hamnafas bo'lishga, ijodga, sport bilan shug'ullanishga, tabiat go'zalliklaridan bahra olishga shaxsiy namuna bo'la olishlari kerak. AKTning maktabgacha ta'limga kiritishidagi dolzarb muammolardan yana biri zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida pedagog xodimlar kompetentligining yetarli emasligidir. Pedagoglar nafaqat AKTdan foydalanishni bilishi, balki o'z faoliyati davomida bolalar bilan o'tkazgan ta'limiy va rivojlantiruvchi tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Veb sahifalarga joylashtira olishi, taqdimotlar tayyorlash va namoyish qila olishi, o'zlarining ta'limiy rivojlantiruvchi mualliflik dasturlarini yarata olishlari ham zarur. Shu bilan birga Internet tarmog'i resurslaridan oqilona foydalanuvchi bilimdon bo'lishi kerak. [2]

Umumiy holatda shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim tizimining sekin-asta taraqqiyot sari qadam tashlashida va samarali kafaolatlangan ta'lim tizimini yo'lga qo'yishda barchamiz birdek mas'ulmiz. Asosiy kuch va imkoniyat tarbiyachining zimmasiga tusharkan, har bir pedagog-tarbiyachi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun o'zining kasbiy standarti yuzasidan informatsion kompetentlikni o'zida yaxshi shakllantirgan bo'lishi lozim. Shunda sohada mavjud kamchiliklar va muammolarga yechim topilishiga yo'l ochiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bugrova Olga Viktorovna PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR UDC 371.14, bbk ch404.78+ch420.42 gnti 14.37.27., O'qituvchilarning axborot

kompetensiyasini rivojlantirish, qo'shimcha kasb-ta'lim shartlarida tadqiqot ishlab chiqishi.

2. Rajabova L. Raqamli iqtisodiyot davrida maktabgacha ta'lim: o'zgarishlar, ustuvor yo'nalishlar, yutuqlar va rejalar. Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya 15.10.2021 y, Navoiy. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda axborot va innovatsion texnologiyalarining o'rni". 1. 88-b

3. Sobirov B.B. Raqamli iqtisodiyot davrida maktabgacha ta'lim: o'zgarishlar, ustuvor yo'nalishlar, yutuqlar va rejalar. Xalqaro ilmiy onlayn konferensiya 15.10.2021 y, Navoiy "Maktabgacha ta'lim sohasini raqamlashtirish va pedagoglar raqamli savodxonligini oshirish – davr talabi" 1. 4-b

4. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. –2022. –T. 3. –No. 01. –C. 1-4.13.

5. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers" education //in Library. –2022. –T. 22. –No. 2. –C. 189-200.

6. Кубаева М. Ekologiktarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –T. 22. –No. 1. –C. 8-11.

7. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //inLibrary. –2021. –T. 21. –No. 2. –C. 51-53.

8. Kubaeva M.B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.

9. M Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o'rni // in Library 2021 (1), 102-105

10. M Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926

**TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI**
Ahmadjonova Umida Tojimurodovna
O'zbekiston, Jizzax politexnika instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto hulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.